

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**60111900 – Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'limi  
(Yengil atletika, gimnastika)**

Dastur Buxoro davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023-yil 6-iyuldagি navbatdan tashqari majlis bayoni.

### **Tuzuvchilar:**

- |                  |  |
|------------------|--|
| M.J. Abdullayev  | - BuxDPI, “Jismoniy madaniyat” fakultet dekani, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor      |
| U.R.Radjapov     | - Nizomiy nomidagi TDPU, “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi mudiri, professor                 |
| R.R. Raxmonov    | - BuxDU “Sport faoliyati” kafedrasi dotsenti   |
| F.S. Fazliddinov | - BuxDPI, “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi dotsenti   |
| A.K. Ibragimov   | - BuxDPI, “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi mudiri v.v.b., dotsent                           |
| Ya.Z. Fayziyev   | - BuxDPI, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi mudiri, mudiri v.v.b., dotsent |
| B.X. Xamroyev    | - BuxDPI, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi                   |
| O.A. Tursunov    | - BuxDPI, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi                   |
| G‘.K. Saidov     | - BuxDPI, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi                   |

### **Taqrizchilar:**

- |               |  |
|---------------|--|
| B.B. Ma’murov | - BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor.                        |
| A.E. Sattorov | - BuxDU “Sport faoliyati” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.    |
| X.N. Xakimov  | - BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. |

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Buxoro davlat Pedagogika instituti 60111900 – «Maktabgacha va  
boshlang‘ich ta`limda jismoniy tarbiya va sport» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish mezoni va dasturi**

**Kirish**

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida aholining, ayniqsa yosh avlodning salomatligini saqlash, jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish masalalariga katta e`tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me`yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrdagi PQ-4063-sonli “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi 65-sonli «O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF 6099-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-sonli Qarori shular jumlasidandir.

**60111900– Maktabgacha va boshlang‘ich jismoniy tarbiya va sport ta’limi** bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta`limi jismoniy tarbiya dasturlari asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning jismoniy mashqlarni bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Dasturda ijodiy (kasbiy) imtihonni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda ularni baholash mezonlari o‘z aksini topgan.

**Dasturning maqsadi va vazifalari.**

Dasturning asosiy maqsadi – abituriyentlarning jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari (jismoniy va sport turlari bo‘yicha maxsus tayyorgarlik) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

Dasturda jismoniy tarbiya fanidan ijodiy (kasbiy) imtihon jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

***Yengil atletika turlari bo‘yicha;***

- 100 metrga yugurish bo‘yicha sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish;

- 4x10 metrga mokisimon yugurish bo‘yicha sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish;

***Gimnastika sport turi bo‘yicha;***

- baland turnikda tortilish bo‘yicha sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish;

- **gimnastika o‘rindig‘iga tayanib, qo‘llarni bukib-yozish** sinov-nazorat mashqini tashkil qilish va o‘tkazish;

Ijodiy imtihon uchun – **156** ball ajratilgan bo‘lib shundan:

1-blok Yengil atletika – 104 ball

2-blok Gimnastika – 52 ball

***Ijodiy imtihonni o‘tkazish va mashqlarni bajarish tartibi***

Barcha imtihon sinovlariga abituriyentlar o‘zi bilan sport formasi (ust-bosh kiyim, krossovka) hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini (pasport, qabul hay`ati tomonidan berilgan tilxat) olib kelishi shart.

Kasbiy (ijodiy) imtihon sinovlari bir kun davomida, jadval asosida belgilangan kunlarda ertalabki 7<sup>00</sup> dan boshlanadi.

*Sport formasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (pasport, qabul hay`ati tomonidan berilgan tilxat) imtihon kuni imtihon komissiyasiga taqdim etilishi shart, aks holda abituriyent imtihonga qo‘yilmaydi.*

***Yengil atletika turlari bo‘yicha;***

**100 metrga yugurish.** Pastki start. Abituriyentlar ro‘yxatga ko‘ra yugurish uchun 2 kishidan ajratiladi. Bir marta urinib ko‘rishga ruxsat beriladi. Yugurish vaqtida faqat o‘ziga belgilangan yo‘lidan yugurish shart. Boshqa yo‘lakka o‘tib ketilsa, natija hisobga olinmaydi.

**4x10 metrga mokisimon yugurish.** Yuqori start. Start va finish chizig‘ini joylari aniq belgilangan bo‘lishi shart. Masofani bosib o‘tish davomida abituriyent chiziqga etmay qaytsa natijasi hisobga olinmaydi.

***Gimnastika sport turi bo‘yicha;***

**Turnikda tortilish.** Abituriyent boshlang‘ich holatni egallaydi. Imtihon oluvchining «Jixoz oldiga» degan buyrug‘iga ko‘ra shaxdam qadamlar bilan (**o‘g‘il bolalar**) turnik oldiga keladi, «Jixozga» degan buyruqdan so‘ng, tortilish holatini egallaydi. Tortilish to‘g‘ri holatda qo‘llar yuqorida ushlab, osilib turgan holda bajariladi (osilib turish holati 1-2 soniya davomida qayd qilinadi). Tortilishda dahan to‘sindan yuqorida bo‘lishi shart. Oyoqlarni bukishga va yozishga ruxsat berilmaydi.

Imtihon oluvchi abituriyentga «Jixoz oldiga» degan buyrug‘iga ko‘ra shaxdam qadamlar bilan (**qiz bolalar**) gimnastika o‘rindig‘iga oldiga kelib ko‘rsatilgan tartibda gimnastika o‘rindig‘iga tayanib, qo‘llarni bukib-yozish mashqini bajaradi. Mashqni bajarish jarayonida to‘xtalishlarga ruxsat berilmaydi.

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
TA'LIMI YO'NALISHIGA KIRISH IMTIHONLARINING ME'YORIY  
TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI**

156-ball

**MEZONLARI**  
*(o'g'il bolalar uchun)*

<b>ERKAKLAR</b>					
<b>100 metrga yugurish (soniya) *</b>		<b>4x10 metrga mokisimon yugurish (soniya) *</b>		<b>Turnikda tortilish** (marta)</b>	
<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>	<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>	<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>
11,30	52	8,00	52	30	52
11,40	51	8,10	51	29	50
11,50	50	8,20	50	28	48
11,60	49	8,30	49	27	46
11,70	48	8,40	48	26	44
11,80	47	8,50	47	25	42
11,90	46	8,60	46	24	40
12,00	45	8,70	45	23	38
12,10	44	8,80	44	22	36
12,20	43	8,90	43	21	34
12,30	42	9,00	42	20	32
12,40	41	9,10	41	19	30
12,50	40	9,20	40	18	28
12,60	39	9,30	39	17	26
12,70	38	9,40	38	16	24
12,80	37	9,50	37	15	22
12,90	36	9,60	36	14	20
13,00	35	9,70	35	13	18
13,10	34	9,80	34	12	16
13,20	33	9,90	33	11	14
13,30	32	10,00	32	10	12
13,40	31	10,10	31	9	10
13,50	30	10,20	30	8	8
13,60	29	10,30	29	7	6
13,70	28	10,40	28	6	4
13,80	27	10,50	27	5	2
13,90	26	10,60	26	4 va undan kam	0

14,00	25	10,70	25		
14,10	24	10,80	24		
14,20	23	10,90	23		
14,30	22	11,00	22		
14,40	21	11,10	21		
14,50	20	11,20	20		
14,60	19	11,30	19		
14,70	18	11,40	18		
14,80	17	11,50	17		
14,90	16	11,60	16		
15,00	15	11,70	15		
15,10	14	11,80	14		
15,20	13	11,90	13		
15,30	12	12,00	12		
15,40	11	12,10	11		
15,50 -15,60	10 - 1	12,20 -12,30	10-1		

*Eslatma,*      \* – Soniyaning yuzdan bir ulushi, ya’ni **0,01 soniya uchun 0,1 ball beriladi;**

\*\* – Mashqni bajarish vaqtida qo’llar tirsak bo‘g‘imidan bukilmasligi lozim.

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
TA’LIMI YO‘NALISHIGA KIRISH IMTIHONLARINING ME’YORIY  
TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI**

156-ball

*(qiz bolalar uchun)*

<b>AYOLLAR</b>					
<b>100 metrga yugurish (soniya) *</b>		<b>4x10 metrga mokisimon yugurish (soniya) *</b>		<b>Gimnastika o‘rindig‘iga tayanib, qo‘llarni bukib- yozish** (marta)</b>	
<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>	<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>	<b>Natija</b>	<b>Ballar</b>
12,80	52	10,00	52	30	52
12,90	51	10,10	51	29	50
13,00	50	10,20	50	28	48
13,10	49	10,30	49	27	46
13,20	48	10,40	48	26	44
13,30	47	10,50	47	25	42
13,40	46	10,60	46	24	40
13,50	45	10,70	45	23	38
13,60	44	10,80	44	22	36
13,70	43	10,90	43	21	34
13,80	42	11,00	42	20	32
13,90	41	11,10	41	19	30
14,00	40	11,20	40	18	28
14,10	39	11,30	39	17	26
14,20	38	11,40	38	16	24
14,30	37	11,50	37	15	22
14,40	36	11,60	36	14	20
14,50	35	11,70	35	13	18
14,60	34	11,80	34	12	16
14,70	33	11,90	33	11	14
14,80	32	12,00	32	10	12
14,90	31	12,10	31	9	10
15,00	30	12,20	30	8	8
15,10	29	12,30	29	7	6
15,20	28	12,40	28	6	4
15,30	27	12,50	27	5	2
15,40	26	12,60	26	4 va undan kam	0

15,50	25	12,70	25		
15,60	24	12,80	24		
15,70	23	12,90	23		
15,80	22	13,00	22		
15,90	21	13,10	21		
16,00	20	13,20	20		
16,10	19	13,30	19		
16,20	18	13,40	18		
16,30	17	13,50	17		
16,40	16	13,60	16		
16,50	15	13,70	15		
16,60	14	13,80	14		
16,70	13	13,90	13		
16,80	12	14,00	12		
16,90	11	14,10	11		
17,00 -17,10	10 - 1	14,20 -14,30	10-1		

- Eslatma,**      \*     – Soniyaning yuzdan bir ulushi, ya’ni **0,01 soniya uchun 0,1 ball** beriladi;
- \*\*    – Mashqni bajarish vaqtida qo’llar tirsak bo‘g‘imidan bukilmasligi lozim.

### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar ijodiy imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingandan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishi mumkin. Murojaat mazmuni faqat o‘zlarining to‘plagan ballari yuzasidan bo‘lsa qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi a‘zolari direktor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.